

**MÜŞTEREK VE MİLLÎ ŞAİRLERİMİZ
MEHMED ÂKİF ERSOY VE
ABDULHAMİD SÜLEYMANÇOLPAN
SEMPOZYUMU**

BİLDİRİLER KİTABI

**MİLLİY SHOİRLARIMIZ
MEHMET AKIF ERSO'Y VA
ABDULHAMİD SULAYMON CHO'LPONGA
BAG'ISHLANGAN SIMPOZYUM**

**07-08 / HAZIRAN-IYUN
URGENCH-O'ZBEKISTON**

Editör

Turgay ANAR

İÇİNDEKİLER

SEMPOZYUM AÇILIŞ KONUŞMASI.....	7
<i>M. Uğur DERMAN</i>	
SEMPOZYUM AÇILIŞ KONUŞMASI.....	11
<i>Mehmet Cemal Çiftçigüzeli</i>	
SEMPOZYUM AÇILIŞ KONUŞMASI	
MEHMET ÂKİF ÜNİVERSİTESİNDEN, ÂKİF'İN ANA DİYARINA	23
<i>Durmuş ACAR</i>	
MEHMET ÂKİF'İN İRFAN DÜNYASINA SEYAHAT	27
<i>Mehmet Ruyan SOYDAN</i>	
MEHMET ÂKİF ERSOY'UN EDEBÎ ŞAHSİYETİ	37
<i>Turgay ANAR</i>	
MEHMET ÂKİF VE ABDÜLHAMİD ÇOLPAN'IN ŞİİRLERİNİN TEMATİK	
AÇIDAN DEĞERLENDİRİLMESİ	43
<i>İbrahim ÖZTÜRKÇÜ</i>	
SIRATIMÜSTAKİM VE SEBİLÜRREŞAT'TA ÖZBEKİSTAN.....	51
<i>Tahsin Yıldırım</i>	
ŞARK TOPLUMLARININ KRİZİNİ VE ÇÖZÜMÜN İMKÂNLARINI	
KONUŞMAK	59
<i>Vahdettin IŞIK</i>	
SIRAT-I MÜSTAKİM'DE NUR ALİZÂDE GIYASEDDİN HASENİ'NİN BUHARA	
ÜZERİNE YAZILARI	75
<i>Şaban Özdemir</i>	
ÖZBEKİSTAN'DAN İSTANBUL'A UZANAN BİR KÜLTÜR VE İRFAN KÖPRÜSÜ:	
ÜSKÜDAR ÖZBEKLER TEKKESİ	83
<i>Ramazan Minder</i>	
MEHMET ÂKİF'İN BUHARALI TALEBESİ: TURAN GAZETESİ BAŞ-	
MUHARRİRİ GIYASEDDİN BİN NURALİ (1887-1922)	93
<i>Ömer Hakan Özalp</i>	
TÜRKİSTAN DEPREMİ (1911) VE SIRÂT-I MÜSTAKİM DERGİSİ.....	117
<i>İsmail Türkoğlu</i>	
MEHMET ÂKİF ve TÜRK MUSİKİSİ	127
<i>Süleyman ERGUNER</i>	
M. AKİF ERSOY'UN MUSİKİŞİNASLIĞI VE MUSİKİŞİNAS ÇEVRESİ.....	149
<i>Hüseyin Kıyak</i>	
ZOR ZAMANDA KARDEŞ DESTEĞİ: BUHARA ALTINLARI	165
<i>Mustafa Karakaya</i>	
TÜRKİSTAN MUHTARİYETİ MUVAKKAT HÜKÜMETİ BAŞ VEZİRİ	
MUHAMMEDCAN TINIŞBAYEV İMZALI BİR BELGE.....	173
<i>Mehmet Ruyan SOYDAN</i>	

“İSTİKLAL MARSİ”NDA MİLLİ RUH “ИСТИҚЛОЛ МАРШИ”ДА МИЛЛИЙ РУХ.....	179
Бобоҳон МУҲАММАД ШАРИФ& ф.ф.д. Шаҳина ИБРОҲИМОВА “ZAFARNOMA” ASARINING NURI USMONIYA KUTUBXONASIDA SAQLANADIGAN YAGONA NUSXASINING TURKIYADA ORGANILISHI HAQIDA	189
<i>Azamat Primov</i>	
CHO’LPON NASRIDA MILLIY UYG’ONISH G’OYALARI (HIKOYALARI ASOSIDA).....	193
<i>Dilshod G’ayipov</i>	
CHO’LPON IJODIDA MILLIY ISTIQLOL MAVZUSI.....	199
<i>G.Sattorova</i>	
TURK VA O’ZBEK ADIBLARI ASARLARIDAGI JAMIYAT VA SHAXS TASVIRIDA MUSHTARAKLIK.....	207
<i>Pirnazarova Manzura Matnazarovna & Tamara Xaitboyeva Xushnud qizi</i>	
CHO’LPON VA MEHMET AKIF ERSOY IJODIDAGI MUSHTARAKLIK.....	215
<i>Matquliyeva Marg’uba Farxodovna</i>	
CHO’LPONNING ARUZ VAZNIDAGI SHE’RLARI BADIYYATI.....	219
<i>Matkarimova Salomat Qo’ziyevna</i>	
CHO’LPONNING TURKIY LUGAVIY BIRLIKLARDAN FOYDALANISH MAHORATI (<i>Bo’ri so’zi misolida</i>)	227
<i>Abdulla Orozboyev</i>	
CHO’LPON SHE’RIYATIDA RAMZIY-MAJOZIY TIMSOLLAR TALQINI.....	233
<i>Djumaniyazova Nasiba</i>	
ISTAMBULDA O’QIGAN TURKISTONLIK JADIDLAR: FITRAT VA BEKJON RAHMON	237
<i>O’tkirbek Abdullayev - Umid Bekmuhammad</i>	
CHO’LPONNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI.....	247
<i>Rahimova Bekposhsha Bahodirovna</i>	
CHO’LPON ASARLARI BIBLIONIMLARINING STRUKTUR TADQIQI.....	251
<i>Aqmanova Shahnoza Alimboyevna</i>	
CHO’LPON ASARLARIDA O’ZBEK XALQ SHEVALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALASIGA DOIR.....	256
<i>Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna</i>	
XORAZM SHEVALARI VA “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDAGI LAQABLARNING QIYOSIY TAHLILI	262
<i>Qodirova Xurshida Marselovna</i>	
AMIRIY DEVONINING TURKIYADA O’RGANILISHI.....	268
<i>Zebo Qobilova</i>	
CHO’LPONNING USMONLICH A USLUBDAGI “ISHQ” SHE’RIDA ILOHIY ISHQ TARANNUMI	272
<i>Matkarimova Salomat Qo’ziyevna</i>	
CHO’LPONNING DRAMATURGLIK FAOLIYATIGA DOIR BAZI MULOHAZALAR	276
<i>G’aipova Hulkar Qo’ziboyevna</i>	
CHO’LPON SHE’RIYATIDA MUHABBAT TASVIRI.....	282
<i>Muyiba Otamuratova O’ktamovna</i>	

CHO‘LPON VA TURK ADABIYOTI.....	285
<i>Shahlo Hojiyeva</i>	
CHO‘LPON VA TOHİR MALİK İJODIDA xalq va millat taqdiri xususida ba’zi mulohazalar	291
<i>Yangiboyeva Sohiba Ruzmetovna</i>	
CHO‘LPON – CHIN YURAK VA HIS SHOIRI	296
<i>Nurboy Jabborov</i>	

CHO‘LPON – CHIN YURAK VA HIS SHOIRI

Nurboy JABBOROV¹

ANNOTATSIYA

Maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon she‘riyatida milliy istiqlol g‘oyasining poetik ramzlar vositasida ifodalanishi masalasi tadqiq qilingan. Shoir lirikasida *xayol*, *kishan*, *bulut*, *yulduz*, *tong* singari ramzlarning poetik vazifasi yuzasidan tahliliy fikrlar bildirilgan. Tahlillar natijasida ushbu poetik ramzlar istibdod iskanjasidagi yurt timsolini, shoirning millat ozodligi, Vatan mustaqilligi haqidagi orzularini, armonlarini ifodalaganiga doir ilmiy umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: she‘riyat, poetik ramz, xayol, kishan, bulut, yulduz, tong, poetik timsol, istibdod, millat ozodligi, milliy istiqlol, badiiy talqin.

Yangi o‘zbek she‘riyatida Abdulhamid Cho‘lponning mavqeyi alohida. Ulug‘ shoir dolg‘ali dengiz to‘lqinlari yanglig‘ ko‘pirib-toshgan tuyg‘ularini, bamisoli sarobday yetib bo‘lmas orzularini, ko‘nglini o‘rtagan cho‘ng armonlarini poetik ramzlar tiliga ko‘chirdi. “Chin yurak va his shoiri” (3,12) o‘laroq millatning yuragini istibdod zanglaridan tozalamoq istadi, uning his-tuyg‘ularini istiqlol yolqini bilan yoritdi. “Buloqlar” to‘plami chop etilishi munosabati bilan zamondoshi Vadud Mahmud: “Cho‘lpon o‘zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o‘zbek elining bu kungi ruhi, holi, sezgisi “Buloqlar”da qaynaydir. O‘zbek tili, o‘zbek ohangi “Buloqlar”da sayraydir, o‘quydir. O‘zbekning ruhiy to‘lqinlari bunda ko‘puradir, ko‘klar tomon uchadir, ko‘tariladir” (2,16), deganida yuz karra haq edi.

Ma‘rifatparvar jadidlarning eng katta orzusi istiqlol bo‘lgani ayon. Savol tug‘iladi: milliy istiqlol haqidagi orzularini Cho‘lpon qanday ramz va timsollar orqali ifoda etdi? Ulardan ayrimlarini tahlil etishga harakat

[1] filologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti jabborov-nurboy@rambler.ru

qilamiz. Bizningcha, ulardan birinchisi – xayol. Shoir nazdida xayol – millatning ozodligi, yuksalishini ifodalovchi poetik ramz. Ushbu ramz Cho‘lpon she‘riyatida qanday mazmunni ifodalaydi? Ayon haqiqat shundaki, vujudni zanjirband etish mumkin, lekin xayolni emas. Eng og‘ir mustamlaka zamonlarida erkinligini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan yagona narsa bu – xayol bo‘lgani ma‘lum. To‘g‘ri, xayolga kishan solmoq mahol. Biroq u ko‘kka uchsa, havoga sovrilsa-chi? Cho‘lponning mana bu satrlarida aks etgan iztirobning sababi shunda:

*Keng xayollar uchdimi ko‘kka
Butun umidlarim yovlarmi ko‘mdi?!*

Xayol qachon odamga quvvat beradi? Qachonki real voqelikka aylansa... Aks holda u ko‘ngilga yupanch bo‘la olmaydi. Xayol, orzu voqelikka aylanmas ekan, maqsadga erishmoq dushvor. Binobarin, o‘y, xayolning o‘zigina ko‘ngil istagini qondirmasligi ayon. Mana bu misralar ana shunday kayfiyat samarasi o‘laroq ijod etilgan:

*O‘ylangan o‘ylar-la ko‘ngil yupanmas,
Ko‘ngilning istagi o‘y bilan qonmas,
Aysalar bu tunda yorug‘ sham yonmas,
Chaqmasa gugurtni asl o‘g‘lonlar.*

“Cho‘lpon shuurida qanday qutlug‘ niyatlar tug‘ilgan, boshida qanday olijanob o‘ylar charx urgan bo‘lmasin, – deb yozadi akademik Naim Karimov ushbu satrlarni tahlil etar ekan, – shoir ko‘ngli faqat bir narsadan – Turkiston o‘g‘lonlarining gugurt chaqib, tunni yoritishlaridan munavvar bo‘lishi mumkin edi” (4,203). Ustoz olim Cho‘lpon Anvar Poshoni ana shunday o‘g‘lonlardan biri deb bilgani, uning mustamlakachilar armiyasi bilan bo‘lgan qaqshatqich kurashda halok bo‘lganidan astoydil qayg‘urgani haqida yozadi. Bu fikr ham Cho‘lpon she‘riyatidagi o‘y, xayol timsollari zamirida Vatan va Millat ozodligi g‘oyasi yashiringanini tasdiqlaydi.

Kishan – istibdod iskanjasidagi yurt ramzi. Cho‘lpon eng faol qo‘llagan bu poetik ramz orzudan ko‘ra ko‘proq armonni ifodalagan. Zero, kishan va ozodlik birgalikda mavjud bo‘la olmaydi. Ulardan birining borligi o‘z-o‘zidan ikkinchisini inkor etadi. Vujud ham mayli, ko‘ngil kishanlangan bo‘lsa-chi?! – Fojia bundan ham ortiq bo‘lmas:

*Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashding?!
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?!*

Cho‘lpon – buyuk istédod egasi. Yangi o‘zbek she‘riyati yuzaga kelishida

uning xizmatlari beqiyos. Ushbu satrlar aslida aruzda – hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Lekin she’r shoir to‘plamlarida barmoqdagi kabi bandlarga bo‘lingan holda grafik shakllantirilgan. Agar barmoq vazni talabidan yondashilsa, ayni grafik ko‘rinishda she’r 4+4 turog‘ida yozilgandek ko‘rinadi. Bizningcha, Cho‘lpon she’rni maqsadli ravishda ana shunday shakllantirgan. Shoirning bu harakati amalda barmoq vazniga o‘tish uchun tayyorgarlik edi. Ta’bir joiz bo‘lsa, jadidlar yangi o‘zbek she’riyatiga o‘tish jarayonini ana shunday ijodiy “eksperiment”lardan boshlagan edi.

Endi she’rdagi “kishan” ramzi tahliliga o‘tamiz. Chin shoir ko‘ngli armonlar iskanjasida qolib ketishi mumkin emas. Bu armon zamiridan orzu o‘sib chiqishi aniq. Zero, orzudan mosivo insonning qanoti qayrilib qoladi, kelajakka bo‘lgan umidi so‘nadi. Ma’rifatparvar jadidlar ana shundan saqlana bildilar. Ko‘ngillarga titroq soluvchi asarlarida nainki o‘z qalb istaklarini, millatning orzularini ifodalashga muvaffaq bo‘ldilar. Yuqoridagi she’rning “*Kishanlar parchalanmasmi? Qilichlar endi sinmasmi?!*” – kabi misralarida ayni shu fazilatni ko‘rish mumkin. Chunki Cho‘lponning “*Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsen!*” degan so‘zlari faqat o‘z ko‘ngliga emas, istibod iskanjasidagi millatga qarata aytilgan o‘tli xitob edi.

“Kishan” sarlavhali she’rida shoir bu poetik ramz mohiyatini yanada ta’sirchan ifodalaydi. She’rda kishan erkinlikning ziddi o‘laroq umumlashma timsol darajasiga ko‘tarilgan n. Shoir mana bunday yozadi:

*Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham bitgani yo‘qdir!
Temir barmoqlaringning dog‘i butkul ketgani yo‘qdir.*

She’rning 1922 yili yozilgani e’tiborga olinsa, unda muallifning sho‘rolarning Vatan va Millat manfaatlariga zid siyosati avjga ko‘tarilgan kezlardagi o‘ylari ifodalangani ayon bo‘ladi. Shoir “basha tarixining har sahfasida qonli dog‘” qoldirgan, “yumilmas ko‘zlarining har biri bir elni qahr aylaydigan” kishandan millatni ozod etmoq istaydi. “Kishan – she’rda qullikni anglatuvchi ramziy obrazdir, – deb yozadi O‘zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov. – Ammo lirik qahramon shu mudhish va manxus kishan qarshisida dag‘-dag‘ qaltiramaydi, balki unga nafratini oshkor etib, undan butkul qutulmoqqa ishonch bildiradi” (5,355).

“Qo‘zg‘alish” she’rida ham kishan erksizlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin shoir she’rda tasvirlangan ruhiyatdan kelib chiqib, bu kishanni zang bosgani, uning uzilish vaqti kelgani haqida yozadi:

*Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo‘lkim, uzilur,
Tomirimda qo‘zg‘alishning vahshiy qoni gupurdi.
Eski fikr, an’analar endi butkul uzildi,*

Yo bitarman, yoki sening saltanating buzilur.

Zamirida zulm va haqsizlikni ifodalagan kishan timsoli Vatani va millatini istibdod iskanjasida koʻrgan Choʻlpon qalbidagi adadsiz anduh, cheksiz iztirob tuygʻularini tajassum etgani bilan shoir sheʼriyatida alohida oʻrin tutadi.

Bulut – shoir dardlarini, armonlarini ifodalagan yana bir muhim poetik ramz. Quyosh nurini, yorugʻlikni toʻsishi jihatidan bu ramz ham mustamlaka yurtning ogʻir ahvolini ifoda etadi:

Ey, togʻlari koʻklarga salom bergan zoʻr oʻlka,

Nima uchun boshingda quyuq bulut, koʻlanka?

“Men shoirmi” sheʼrida xayol va bulut (koʻlanka) ramzlari uygʻunlikda tasvirlangani kuzatiladi. Xayollari tizginini qoʻyib yuborgani, ular ming qavat koʻkni bir boshdan siypalab oʻtib borayotgani haqida yozar ekan, shoir:

Koʻlanka kabidir: oʻtgan yeridan

Soʻngra qarasangiz bir nishon qolmas –

degan xulosaga keladi. Uning iztirobi shu qadar choʻngki, yana boshqa bir sheʼrida bulut ramzi zamiriga “*Mening koʻnglimmi qora?! Yo yurt koʻkida bulut?*” tarzidagi Vatan va millat dardi bilan hamohang dardli savolni joylaydi.

Choʻlpon ona yurt boshiga tushgan fojiani butun dahshati, bor mohiyati bilan ochib beradi. “Choʻlpon – Choʻlpondir” fiqrasida Ahmad Shukriy shoirmi Shekspirga qiyoslagani bejiz emas. “Choʻlpon oti qulogʻimga kirdikcha Shekspir ruhi koʻrinadir-da turadir, – deb yozgan edi muallif. – Shekspir lirizmasi bilan Choʻlpon sheʼriyati orasinda naqadar ayirma axtarsam-da, oni topa olmadim. “Uygʻonish”ni necha topqirlar oʻqib chiqdim. Shekspirni mutolaa etdim. Eng soʻng Shekspir Choʻlpondir yoxud Choʻlpon Shekspirdir fikriga keldim” (1,15).

Ahmad Shukriy, balki davr taqozosi bilandir, bu ikki ijodkorni qiyoslaganda, fojia haqida gapirmaydi. Biroq uning yozganlari magʻzidan har ikki fojjanavis (Choʻlpon lirikada, Shekspir dramada) asarlari mohiyatidagi uygʻunlikni nazarda tutganini sezish qiyin emas.

Yulduz – Choʻlpon orzularini taʼsirchan, betakror ifodalashda faol qoʻllangan poetik ramz. Zero, shoirming adabiy taxallusi ham ana shu ramzga mutanosib. “Yorugʻ yulduzga” sheʼrida shoir goʻzal, nurli yulduzga xitob qilib, otalarning tarixdagi xatolaridan, shu xatodan foydalanib, yovlarning el koʻksida surgan ishrat-safosidan soʻzlashini soʻraydi. Oʻtmishdagi turmushning qonli, shonli jihatlaridan, yurt uchun jonlar berib, qonlar toʻkkan erlar kechmishidan hikoya qilishini oʻtinadi. Biroq yulduz jim. Nega? Koʻzlari qizarinib yoshlanadi – nima uchun? Yuzlari soʻlgʻin tus oladi – ne sababdan? Shoir taʼbiri bilan aytganda, chunki uning soʻzlaydigan yaxshi soʻzi yoʻq. Chunki “ogʻiz ochsa,

yo‘qsil elni ezmakka, qon qilmoqqa hasratlari ko‘p”. She‘rdagi mana bu so‘zlar shoir yuragidan armon bo‘lib otilib chiqqan:

*Falokatlar ko‘rgan ota-bobolar,
Istiqlolning qimmatini bilmagan.
Elu yurtni saqlar uchun so‘ng xonlar
Tuzukkina chora-tadbir qilmagan.*

“Yupanmoq istagi” she‘rida Cho‘lpon: “Yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduz-da qochsa” deya eldan tole yuz o‘giranini aytib, kuyinadi. “Amalning o‘limi” she‘rida esa shoir erklik yulduzi haqida yozadi. Uni “*tutqun ellar uchun samo qunduzi*” deya ta‘riflaydi. Bu yulduzning izi ko‘ngillarda qolishidan darak beradi. Erklik yulduzi, shoir nazdida, istiqlol darakchisi, erkinlik elchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yulduz – Cho‘lpon nazdida orzu-umidni ifodalagan poetik ramz. Tasavvur qiling: go‘ristonday qorong‘i, zim-ziyo bo‘shliqda adashgan bir yo‘lchi – bu tasvir shoirga istibdod zulmatida yo‘lsiz qolgan ona Turkistonni esalatadi. U yo‘l ko‘rsatuvchi yulduzga muhtoj. Qutulish tongidan mujda beruvchi bu yulduz milliy ozodlik orzusini tajassum etadi:

*Go‘riston, qorong‘i. Zim-ziyo bo‘shliqda
Adashgan bir yo‘lchi... tasavvur qilingiz.
Qo‘rqasiz! Qo‘rqasiz!..*

Va lekin ufqda

*Uch-to‘rtta yulduzning o‘chmasdan, yarqirab,
Nur sochib turgani ko‘rilsadilingiz
Qo‘rqishdan bir qadar to‘xtar-da, yarqirab
Ko‘zingiz oldida bir umid ko‘rinur.*

Shu umid qutulish tongining nuridir!..

Biroq yulduz shoir she‘rlarida har doim ham umid timsoli bo‘lib kelgan, deyish qiyin. Cho‘lpon nazmiy asarlarida ba‘zan u umidsizlikni ham ifodalagan. Birgina misol:

*Charchag‘on yo‘lovchi yo‘ldan adashsa,
Tekis yo‘l qolsa-da, tog‘lardan oshsa,
Yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduz-da qochsa,
Shunda yupang‘aymi yalang‘och cho‘llar?*

Ta‘kidlash kerakki, bu satrlarda ozodlik yo‘lidan adashgan millat ahvoli ruhiyasi o‘z ifodasini topgan. Bu o‘rinda tog‘ – erk yo‘lidagi to‘siqlar. Yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduzning qochishi – undan tole yuz o‘giranini belgisi. Mana, Cho‘lpon she‘rlari zahirida millat dardi yulduz timsoli vositasida qanchalik

qatma-qat, nechog‘liq ta’sirchan ifodalangan.

Mashhur “Qalandar ishqı” g‘azalining maqta’ida shoir o‘z taxallusi ma’nosiga ishora etgan holda mustamlaka Turkiston tanazzuli qay darajada chuqur ekanini yanada teran talqin qiladi:

*Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay, yerga botdim-ku.*

Ushbu maqta’-baytni tahlil etar ekan, professor Begali Qosimov mana bunday yozgan edi: “Shubha yo‘qki, “Cho‘lpon” va “Quyosh”ning ma’nolari bu yerda juda keng. U osmon yoritqichlari va ishq-muhabbatdagi martabadan hokim va mahkum, hukmron va tobe singari ijtimoiy-siyosiy rutbalargacha daxldor” (6.446).

“Yurt yo‘li” she’rida muallif o‘zini uzoq, og‘ir yo‘lga chiqqan yo‘lchi hisoblab, bu yo‘llarda qilog‘uzi – yo‘lboshchisi yulduz ekanini aytadi:

*Uzoq... og‘ir yo‘lga chiqqan yo‘lchimen,
Bu yo‘llarda qulog‘uzim yulduzdir.*

Ushbu satrlarni tahlil etar ekan, adabiyotshunos Dilmurod Quronov: “... yo‘l uzoq va mashaqqatli; ko‘zlangan maqsad – Yulduz, u goh bulutlar orasida ko‘rinmay qoladi, goh ojiz miltirasa, goh charaqlab ko‘zni qamashtiradi” [7,246], deya yulduz poetik ramzi ifodalagan mohiyatni tahqiq qiladi. Olim bu yo‘ldagi umid va umidsizlik bekatlarini Cho‘lpon va umuman Turkiston boshdan kechirgan ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan bog‘laydi. Uning fikricha: “Umud bekatlari – 1917 yil fevral inqilobi, Buxoro jumhuriyatining tashkil topishi, “bosmachilik” tamg‘asini olgan milliy ozodlik harakatining kuchayishi... Umidsizlik bekatlari – Qo‘qon muxtoriyatining qonga botirilishi, Buxoro jumhuriyatining tugatilishi, milliy ozodlik harakatining yagona kuchga birlasholmay parokanda bo‘lishi...” [7,246]. Darhaqiqat, Cho‘lpon she’riyatidagi har bir poetik ramz zamirida shoir lirik kechinmasi va orzu-armonlaridan tashqari, aniq ijtimoiy-tarixiy voqelik tasviri ham berilgan.

Mana bu misralarda Cho‘lpon uchun yulduz ertangi nurli istiqbolga umid tuyg‘usini fodalagan:

*Men yurtimning pok istakli kuchimen,
U yulduzning tugalishi kunduzdir.*

Ya’ni shoir yurt boshiga kelgan zulmatli kunlar tugashini, tong yulduzi kunduzga ulanishini orzu qiladi.

Cho‘lpon she’rlarida milliy istiqloq orzusi ifodalangan ramzlardan yana biri – tong. Bir she’rini shoir “Tortishuv tongi” deb ataydi. She’r yenggan qo‘shin boshlig‘idek gerdayib botgan quyoshning bulutlar ostidan chiqmoq uchun

tirishayotgani tasviri bilan boshlanadi. Muallif istibdod zindonida ko‘pdan beri quyosh ko‘rmay zaxlab qolgan ko‘ngillarga istiqloq tongi mujdasini beradi:

*Qayg‘uringiz:
kishanlarni yasovchi “ustalar”,
Boshqalarni “tubanlar” deb atovchi xo‘jalar:
Sizning uchun yoz boshining qoridek
eruv kunlar keladir.
Sizning uchun olbostining zoridek
yig‘lar kunlar keladir.*

She‘rda otajak tong pafosi – ko‘tarinki ruh yetakchilik qiladi. “Kishanlarni yasovchi “ustalar”, Boshqalarni “tubanlar” deb atovchi xo‘jalar” – mustabid tuzum yalovbardorlari ustidan nazmiy hukm o‘qiladi. Shoir obrazli qilib, ular uchun yoz boshining qoridek eruv kunlar kelishidan, olbostining zoridek yig‘lar kunlar yetishidan xabar beradi. Bu amalda istiqloq haqidagi xabar edi.

Shoir mustaqillikni obrazli tarzda “chiqadigan quyosh” deb ataydi. Quyoshni etak bilan to‘kishga urinish nodonlikdan o‘zga narsa emas. Cho‘lpon nazdida, bu shunchalik aqlga nomuvofiqki, Azroil kelganda jon bermaslikka tirishmoq bilan barobar:

*Chiqadigan quyoshni siz behuda
Etak bilan to‘smoq uchun tirishmang.
Ahmoq bo‘lib Azroilning oldida
Jon talashing, to o‘lguncha berishmang!*

Umuman, Cho‘lpon she‘riyatida istiqloq haqidagi armonlaru orzular *xayol, kishan, bulut, yulduz, tong* singari poetik ramzlar vositasida betakror badiiy talqin etilgan. Bir she‘rida shoir “chechaklar ungusi ko‘z yoshlarimdan” deganidek, uning she‘rlari ko‘ngillarda ozodlik chechaklari unishiga zamin bo‘ldi. Bugungi ozod va obod kunlar uchun Cho‘lpon va cho‘lponlar oldida qarzdormiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аҳмад Шукрий. Чўлпон – Чўлпондир. / Чўлпон ва танқид (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муалифи Б.Каримов). –Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004.
2. Вадуд Маҳмуд. Чўлпоннинг “Булоқлар”и. /Чўлпон ва танқид. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004.
3. Зариф Башир. Ўзбек шоири Чўлпон шеърлари. /Чўлпон ва танқид. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004.
4. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.– Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
5. Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. – Тошкент: Маънавият, 2004.

6. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш, Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юрларининг филология факултетлари учун дарслик. – Тошкент: Маънавият, 2004.
7. Quronov D. “Ilk avval ko’zimni ishq bilan ochdim...”. /Cho’lpon. She’rlar. – T.: Akademnashr, 2021.